
Jurnalistlar Farg'onada saylovlarni yoritish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi

Respublika ommaviy axborot vositalari bosh muharrirlari, jurnalistlar, blogerlar hamda taniqli shoir va yozuvchilar uchun Farg'ona viloyatida media-tur tashkil etildi.

Media-tur doirasida jurnalistlarni Markaziy saylov komissiyasi Xalqaro matbuot markazi Farg'ona viloyat bo'limi rahbari Sh.Aslonov ommaviy axborot vositalari vakillarining saylov kampaniyasi davrida to'laqonli faoliyat olib borishlari va saylovlarni haqqoniy, xolis yoritishlari, keng jamoatchilikka yetkazishlari uchun belgilangan talablar asosida yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirdi.



Matbuot markazida Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar zali, matbuot anjumanlari va brifinglar o'tkazish joyi hamda viloyat saylov komissiyasi, uning a'zolari hamda ekspertlar tomonidan saylov qonunchiligini, saylov kampaniyasini targ'ib qilish uchun alohida tet-a-tet uslubida tasvirga oladigan sahna tayyorlangan.

Markaziy saylov komissiyasi

Xalqaro matbuot markazi

Farg'ona viloyat bo'limi

2019-10-28 13:17:30